

YETIM BOLALAR VA OTA ONA QARAMOG‘IDAN MAHRUM BO‘LGAN BOLALARNI HUQUQI VA MANFAATLARINI HIMOYA QILISH

Kubayeva Yulduz Ismailovna

Toshkent Amaliy fanlar universiteti o‘qituvchisi

E-mail: y.kubayeva@gmail.com

Olimjonov Ortig‘ali Orifjon o‘g‘li

Toshkent Amaliy fanlar universiteti 1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola bolalar huquq va erkinliklarini himoya qilishga bag‘ishlangan. Bolaning kelib chiqishi, nasl-nasabi, dini, tili, millatidan qat’iy nazar uning huquq va erkinliklari kafolatlangaligi haqida yoritilgan. Mana shu nuqtai nazardan kelajak avlodning huquqiy savodxonligini oshirish yo‘lidagi islohotlar, chora-tadbirlar, tushuncha va maslahatlar berib o‘tilgan. Yosh avlodni erkin va demokratik, insonparvarlik ruhida tarbiyalash yo‘lida qator tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: demokratik, huquq, erkinlik, majburiyat, insonparvarlik, vatanparvarlik, konstitutsiya, konvensiya.

ABSTRACT

This article is dedicated to the protection of children’s rights and freedoms. About the guarantee of the rights and freedoms of the child, regardless of his origin, lineage, race, religion, language, nationality. It is in this context that reforms, measures, insights and advice are provided to improve the legal literacy of the next generation. A number of recommendations have been made to educate the younger generation in a free and democratic, humane spirit.

Keywords: democratic, law freedom, obligation, humanity, patriotism, constitution, convention.

KIRISH

Yosh avlodni erkin, demokratik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni komil inson qilib o‘stirish va ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish va ta’minlab borish fuqarolik jamiyatiga asoslangan demokratik, huquqiy davlatni qurishni o‘z oldiga maqsad qilib olgan har bir jamiyat uchun juda ham muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Barcha demokratik davlatlar kabi, mazkur masala, ya’ni yosh avlodni

tarbiyalash, aholida esa bola huquqlari sohasidagi huquqiy madaniyatni shakllantirish masalasi, O‘zbekiston uchun ham muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

Mamlakatda yoshlar masalasi, ularning o‘z fuqarolik pozitsiyasiga ega inson sifatida tarbiyalash, ularning huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini ta‘minlash masalalariga mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida katta e‘tibor qaratib kelinmoqda. Mustaqilligimiz dastlabki yillarida “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi maxsus qonuni qabul qilinganligi bunga yaqqol dalil bo‘la oladi. Mazkur Qonunda yoshlarga oid siyosatning maqsadi, O‘zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari, yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi qonunlarning mazmun-mohiyati qanday bo‘lishi lozimligi, bu boradagi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari normalarining ustuvorligi tamoyili ko‘rsatib o‘tilgan. Bu esa, yoshlar siyosati masalasi 1992-yilgi mustaqil O‘zbekistonning Konstitutsiyasida o‘z aksini topishiga, shu yili O‘zbekistonning BMTning asosiy hujjatlaridan biri hisoblanmish “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyaga qo‘shilishiga va mazkur hujjatlar asosida o‘tgan davr mobaynida bolalar va yoshlar masalalariga dahldor 100 dan ortiq qonunlarni qabul qilinishi hamda 2008-yilda, bu sohadagi maxsus qonun hisoblangan O‘zbekiston Respublikasining “Bolat huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunini qabul qilinishiga asos bo‘ldi. 2008-yil 7-yanvar kuni kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 18 yoshgacha bo‘lgan subyektlar hisoblanmish, bolalarning huquqiy ahvolini belgilashga doir munosabatlarni tartibga solishga, bola huquqlarini va erkinliklarini yuridik kafolatlashga qaratilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, o‘tgan davr mobaynida, mamlakatda bolalarning huquqiy jihatdan himoyalashning xalqaro va milliy huquqiy asoslari yaratildi va ular hayotga tadbiiq etilib borilmoqda. Mazkur huquqiy hujjatlarda bolalar, shuningdek, aholining boshqa barcha qatlami vakillarining ham bola huquqlari sohasidagi huquqiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilgan. Bu yo‘nalishda huquqiy tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi tegishli xalqaro hujjatlar, parlamentning qonun va qarorlari, mamlakat Prezidentining g‘oyalari, tegishli farmon va farmoyishlarining ijrosining samarasi o‘laroq, bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha va umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari, oliy o‘quv yurtlari va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘limda huquqiy ta‘lim tizimi yaratildi. Bola huquqlarini o‘rganish masalasi mazkur tizimning tarkibiy qismiga aylandi.

ASOSIY QISM

Bola huquqlari to‘g‘risida konvensiya — bolalar huquqi to‘g‘risidagi xalqaro huquq normalari kuchiga ega bo‘lgan hamda kelajakka qaratilgan eng to‘la va birinchi

hujjat BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989 yil 20 noyabrda bir ovozdan qabul qilingan. Konvensiya 1959 yilda qabul qilingan Bola huquqlari deklaratsiyasi qoidalarini rivojlantiradi. Deklaratsiya „Insoniyat o‘zida mavjud bo‘lgan eng yaxshi narsalarning hammasini bolalarga berishga majbur“ deb e‘lon qilgan edi. Konvensiya esa ushbu Deklaratsiya va boshqa xalqaro hujjatlardagi bolalar huquqlari to‘g‘risidagi qonunlarni o‘zida mujassamlashtirgan. Bola huquqlari to‘g‘risida konvensiya dunyoning barcha mintaqalaridagi xalqlar uchun teng ahamiyatga ega, asosiy maqsadi bolalar manfaatlarini mumkin qadar himoya qilishdan iborat. U muqaddima, 3 qism, 54 moddadan iborat. Konvensiyaga asosan agar milliy qonunlarda balog‘at yoshi bir muncha erta belgilangan bo‘lmasa, 18 yoshga to‘lmagan har qanday shaxs bola hisoblanadi. Bola huquqlari to‘g‘risida konvensiya insonning fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari yig‘indisidan iborat. U bolalar o‘zining axloqiy, aqliy va ruhiy qobiliyatlarini erkin rivojlantirishi uchun boshqa narsalardan tashqari sog‘lig‘i va atrof muhitning xavfsizligi, tibbiy yordamga ega bo‘lish va ovqatlanish, kiyim-kechak, turarjoy xususidagi minimal normalar bilan ta‘minlanishi zarurligini talab etadi. Konvensiyaga ko‘ra, bola o‘zining kamol topishida o‘zi faol ishtirok etishi, o‘z fikrini bayon qilish huquqiga ega, bu esa uning hayotiga oid masalalarni hal etishda hisobga olinishini ta‘minlaydi.

Konvensiya bolaning yashash va sog‘lom rivojlanish huquqiga, farzandlikka olish bilan bogliq huquqqa, noraso bolalar va qochoq bolalar, shuningdek huquqbuzarlik sodir etgan bolalarning huquqlariga oid qoidalarni o‘z ichiga oladi, bolalarga g‘amxo‘rlik qilish va ularni himoya qilishda oila va ota onaning birinchi darajali ro‘li, bolalarga yordam ko‘rsatish borasidagi majburiyatini tan oladi. Bolalarni kamsitmaslik-Konvensiyaning muhim tamoyillaridan hisoblanadi. Bolalar irqi, tanasining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e‘tiqodi, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati, sog‘lig‘ining ahvoli ota onasi yoki qonuniy vasiysi yoxud qandaydir boshqa holatlardan qat’iy nazar, biron bir kamsitishlarsiz o‘z huquqlaridan foydalanishi kerak. Bola huquqlari to‘g‘risida konvensiya 1990 yil 2 sentabrda kuchga kirgan. Unga O‘zbekiston Respublikasi 1992 yil 9 dekabrda qo‘shilgan. Konvensiyani ratifikatsiya qilgan yoki unga qo‘shilgan davlatlar uni bajarish yuzasidan tadbirlar bo‘yicha bola huquqlari qo‘mitasiga muntazam ravishda milliy ma‘ruzalar yuborib turadi. O‘zbekiston Respublikasida ushbu Konvensiyani bajarish bo‘yicha birinchi milliy ma‘ruza 1997 yilda tayyorlangan.

Konvensiya moddalari bolaning yashash, farovon yashash sharoitlari, ta‘lim olish, ism, fuqarolik, o‘z individualligini saqlash huquqlarini, alohida yashaydigan ota-onalari bilan muloqot qilish, o‘z qarashlari va fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatlarini tartibga soladi. Konvensiya bolalarga shafqatsizlarcha munosabatda bo‘lish, ularni ekspluatatsiya qilish va kamsitishni taqiqlaydi. Bolalarning huquq va

erkinliklariga rioya etish bo'yicha davlat va ota-onalar zimmasiga mas'uliyatli burch yuklangan. Konvensiyaga muvofiq, bolalarga nisbatan qo'llaniladigan barcha xatti-harakatlar bola manfaatlarini a'lo darajada ta'minlash mezoniga ko'ra belgilanishi lozim. Mazkur mezon, shuningdek, ota onalarning o'z farzandlariga nisbatan munosabatiga ham taalluqlidir. Ushbu konvensiya bola huquqlarining butunjahon konstitutsiyasi deb ham ataladi. Chunki u insoniyat tarixidagi bola huquqlari bo'yicha ilk yuridik majburiy xalqaro huquqiy shartnoma hisoblanadi. Undagi nizomlar deklarativ xususiyatdan xoli. O'zbekiston Respublikasi 1992-yilda BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini ratifikatsiya qilgan holda undagi nizomlarga rioya qilish va ularning ijrosi bo'yicha xalqaro majburiyatlarni o'z zimmasiga oldi. Mamlakatimizda yuzdan ziyod qonunlar bolaning u yoki bu huquq va erkinliklarini tartibga solishiga qaramay, 2008-yil 7-yanvardan "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi qonun kuchga kirdi. Mazkur sana munosabati bilan joriy yil 17-iyulda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya qabul qilinganligining 30 yilligini nishonlashga bag'ishlangan Tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu dastur doirasida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, bolalar huquqlari bilan shug'ullanadigan davlat va nodavlat tuzilmalarining huquq va majburiyatlari, bola huquqlari buzilganda, ularni himoya qilish uslublari va shakllarini tushuntirishga bag'ishlangan tadbirlar o'tkazilmoqda. Aholi orasida bola huquqlariga oid konvensiya qoidalari, xalqaro standartlar targ'ib etilmoqda, joylarda bolalar manfaatlarini bo'yicha faoliyat yurituvchi tegishli davlat va jamoat tuzilmalari to'g'risida ma'lumot berilmoqda.

Nafaqat konvensiya matni, balki bolani ijtimoiy va madaniy rivojlantirish bo'yicha ta'lim darajasini oshirishga xizmat qiladigan maxsus adabiyotlar, plakatlar va materiallarning o'zbek, qoraqalpoq va rus tillarida chop etilishi alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning bajarilishini tashkil etish masalalari bo'yicha idoralararo muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishi Toshkentda bo'lib o'tdi. Davlat va nodavlat tashkilotlari vakillari hamda xalqaro tashkilotlar mutaxassislari ushbu sohadagi ustivor masalalarni muhokama qildilar. Shuningdek, bu yil Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya (BHK) qabul qilinganligining 30 yilligi nishonlanadi. BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi dunyoda eng ko'p davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan BMT bitimi bo'lib, u butun jahondagi bolalarning hayotini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda bola huquqlarini ta'minlash borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Bola huquqlari kafolatlari yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida qaror qabul qildi.

Yig'ilish ishtirokchilari BMT Bola huquqlari bo'yicha qo'mitasi tavsiyalarini tadbiq etish borasida O'zbekiston hukumati tomonidan ko'rsatilayotgan siyosiy irodani va izchilliligni alohida ta'kidlab o'tdilar. Shu bilan birga ular bola huquqlari monitoringi hamda bolalarning o'zi hamda ularning nomidan taqdim etilayotgan shikoyatlar bilan ishlash mexanizmlarini yanada kuchaytirish zarurligiga urg'u berdilar. Boshqa masalalar bilan bir qatorda, kengash a'zolari ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan besh yillik harakat rejasini ishlabchiqish jarayonini muhokama qildilar. "Hukumat ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar uchun oiladagidek muqobil sharoitlarni yaratish bo'yicha rejalar ishlab chiqayotganligi quvonarli holatdir.

Oilalarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish uchun ota-onaqaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning deinstitutionalizatsiyasi hamda ular uchun oila ko'rinishidagi muqobil sharoitlarni yaratish bo'yicha harakat rejasini ishlab chiqish lozim. Buning uchun bolalarni katta muassasalarga joylash amaliyotini o'zgartirishga, uning o'rniga bolalarni o'z oilalaridan ajratishning oldini olishga qaratilgan mahalliy hamjamiyat tashabbuslariga e'tibor qartish lozim," – dedi UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Sasha Graumann. Ijtimoiy jihatdan zaif bo'lgan bolalarning ehtiyojlarini ta'minlash borasidagi yana bir muhim tavsiya bolalar ijtimoiy himoyasiga yo'naltirilayotgan moliyalashtirish qamrovini kengaytirishdir. Kam daromadli oilalarni qo'llab-quvvatlash iqtisodiy islohotlar davom etayotgan pallada muhim ahamiyat kasb etadi. Yig'ilish ishtirokchilari bolalarning ijtimoiy himoyasi ustivor masalalar qatoridan o'rin olishi lozimligini ta'kidladilar.

NATIJAR VA MUHOKAMALAR

Xalqimiz azaldan yosh avlodga hayotimiz davomchilari sifatida alohida e'tibor qaratib kelgan. Buyuk allomalarimiz Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Sohibqiron Amir Temur, Alisher Navoiy qarashlarining asosida ham yosh avlod tarbiyasi yotganini ko'rish mumkin. Shu bilan birga, muqaddas hadislarimizda oiladagi munosabatlar, ota-onalar va farzandlar burchi, tarbiyaning bola ongiga ta'siri, ota-ona mas'uliyati, masalalariga e'tibor qaratilgan. Buyuk bobomiz Abu Ali Ibn Sino bolaning xulq-atvorini kuzatish va unga yaxshi odatlarni singdirish juda muhimligini, bolaga o'z vaqtida xat-savod, hunar o'rgatish va san'at asoslari bilan tanishtirib borish zarurligini ta'kidlagan. Allomaning fikricha, ota bolasiga yaxshi ism qo'yishi, bola emizikli yoshdan o'tganda ota unga g'amxo'rlik qilishiga, yomon ta'sirlardan asrashi, u olti yoshga to'lganda bolaga ehtiyotkorlik bilan murakkab bo'lmagan masalalarni yechishni o'rgatishi kerak deydi. Darhaqiqat, yosh avlod tarbiyasi hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Bu ezgu an'ana istiqloq yillarida yanada keng quloq yoydi va davlatimiz siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Natijada bugun yurtimizda bola huquqlari hamda manfaatlarini ta'minlash, ularning hayoti va sog'lig'i

haqida qayg'urish, kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, huquq va imkoniyatlari tengligini kafolatlashga qaratilgan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Har bir bolaning jismoniy, intellektual hamda ma'naviy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish, ularni vatanparvarlik, bag'rikenglik va tinchliksevarlik ruhida tarbiyalash, milliy an'ana hamda qadriyatlarimiz, jahon madaniyati yutuqlari bilan tanishtirish, ilmiy va badiiy ijodkorligini rivojlantirish, bu borada davlat hamda nodavlat tashkilotlar hamkorligini kuchaytirish, voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilik va rivojlantirish, bu borada davlat hamda nodavlat tashkilotlar hamkorligini kuchaytirish, voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklar kamayishiga erishish ham mazkur yo'nalishdagi ishlar ko'lami nechog'li keng ekanidan darak berib turibdi. Bularni muvaffaqiyatli bajarishda sohaning huquqiy asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu bois o'tgan yillar davomida yurtimizda yoshlarning mukammal bilim olishi, o'z iste'dodini yuzaga chiqarishi uchun sharoit yaratish barobarida, bola huquqlarini xalqaro me'yorlar darajasida kafolatlaydigan milliy qonunchilik asosini yaratish choralari ko'rildi. Avvalo, Konstitutsiyamizda bola huquqlari to'liq kafolatlanganini aytish zarur. Shu asosda o'tgan davrda beshta xalqaro konvensiya ratifikatsiya qilindi va o'ndan ortiq qonunlar qabul qilindi. Xususan, BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi hamda "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan bolalarning huquq va manfaatlarini ta'minlanmoqda. "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, vasiylik hamda homiylikka muhtoj shaxslar, xususan, ota-ona qaramog'idan mahrum bolalarga har tomonlama g'amxo'rlik ko'rsatilayotir. Ayni paytda voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi izchil amalga oshirilib, sudlar hamda boshqa muassasalarda ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarining mustahkam himoyasi ta'minlanmoqda. Shuningdek, O'zbekiston ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risidagi (Jeneva, 1973 yil 26 iyun) hamda bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi konvensiyalarga (Jeneva, 1999 yil 17 iyun) qo'shilgan bo'lib, bu borada o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarib kelmoqda.

O'rni kelganda aytish kerakki, xorijlik ekspertlar yurtimizda bolalarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikni ijobiy baholamoqda. BMTning bola huquqlari bo'yicha xalqaro eksperti, sudya Renate Vinter: "O'zbekistonda BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi amaliyotga to'la tatbiq etib kelinmoqda va sohada mustahkam huquqiy baza yaratilgan. Mamlakatda bu boradagi qonunchilikni takomillashtirish hamda xalqaro hamkorlikka alohida urg'u berilayotgani ham e'tiborga molik" - deya e'tirof etdi. "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi

Qonunda ilk marotaba bolalar, yetim bola, ijtimoiy himoyaga muxtoj bola, nogiron bola kabi tushunchalarning mazmun mohiyati ochib berildi. Unda bola huquqlarini ta'minlash va ularni amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratish, bu borada davlat organlari hamda jamoat birlashmalari vakolatlari mustahkamlab qo'yilgan.

Bola huquqlariga doir xalqaro va milliy hujjatlarni o'ziga singdirgan "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi va "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi bir qator O'zbekiston Respublikasi Qonunlarining qabul qilinishi bolalar huquq va manfaatlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamladi. Shu o'rinda "Bolalarni asraylik" xalqaro tashkiloti tomonidan tuzilgan jahon reytingida O'zbekiston bolalar salomatligini mustahkamlash borasida katta g'amxo'rlik ko'rsatayotgan eng ilg'or yetakchi o'nta mamlakat qatoriga kiritilganini alohida e'tirof etsak arziydi. Bolalarning huquq va manfaatlari, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sharoitini yanada yaxshilash, har tomonlama barkamol avlod sifatida kelajagimizning hal qiluvchi kuchiga aylanishi uchun bor imkoniyatlarni ishga solinmoqda. Bu esa ertangi kunimizga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mamlakatda bugungi kunda aholining bola huquqlari oid huquqiy madaniyatini rivojlantirish bo'yicha huquqiy asos va institutsional tizim yaratildi va u takomillashtirib borilmoqda. Ammo, qonunlarni ishlashi, ular Mexanizmlarining samaradorligi birinchi o'rinda, aholining huquqiy madaniyatining qay darajada ekanligiga bog'liqdir. Uni esa, bu borada ta'limsiz erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham, mamlakatda inson huquqlari sohasidagi ta'limni rivojlantirish bilan bir qatorda, uning aholisining katta qismini tashkil etuvchi bolalarning huquqlarini ham maxsus o'qitish bugungi kunning dolzarb masalasiga aylanmoqda. Mazkur yo'nalishda, bolalarning huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirishda, aholining bola huquqlariga oid huquqiy bilimlarini oshirish maqsadida qator islohatlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida shaxs va fuqaroning o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirishiga asos bo'lgan omil, ya'ni rahbariy g'oyalar yig'indisi hisoblangan shaxs va fuqaro huquqiy maqomining quyidagi tamoyillari mustahkamlab qo'yilgan:

- 1) shaxs va fuqaroning huquq va erkinliklari sohasida xalqaro huquq normalarining ustunligi;
- 2) asosiy huquq va erkinliklarning ajralmasligi;
- 3) huquq va erkinliklarning bevosita amalga oshirilishi;
- 4) huquq va erkinliklarni majburan cheklashga yo'l qo'yilmasligi;
- 5) shaxs va fuqaro huquq va erkinliklarining davlat tomonidan kafolatlanganligi;
- 6) teng huquqlilik;

7) shaxsning o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishi boshqalarning huquq va erkinliklariga putur yetkazmasligi shart ekanligi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan inson huquqlari shaxsning erkinlik va o'z taqdirini o'zi belgilash doirasini, uning avtonomiyasini o'rnatadi, inson huquqlari va erkinliklari sohasida umume'tirof etilgan xalqaro normalar va standartlar asosida ijtimoiy aloqalar va munosabatlarni tartibga soladi hamda muvofiqlashtiradi, davlat insonning shaxsiy erkinlik doirasiga asossiz aralashishining oldini olgan, davlat tuzilmalarining mutlaq hukmronligiga va o'zboshimchaligiga to'siq qo'ygan holda faoliyatining chegarasini o'rnatadi, inson va davlatning o'zaro munosabatlari mezonlarini, davlatning o'z faoliyati uchun jamiyat va shaxs oldidagi mas'uliyatini belgilaydi. Har bir demokratik davlatning konstitutsiyaviy asosini inson huquq va erkinliklari tashkil qiladi. Shu ma'noda, mamlakatimiz Konstitutsiyasidan "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" bo'limi alohida o'rin egallagani bejiz emas. Shuningdek, yuqorida ta'kidlanamizdek, Konstitutsiyaning "Asosiy tamoyillar" bo'limida inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat ekanligini qayd etuvchi asosiy g'oyalar mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, ular jamiyatning to'la huquqli, shu bilan bir qatorda muayyan zaif.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Maxsus psixologiya: o'quv qo'llanma / L.R. Mo'minova, Sh.M.Amirsaidova, Z.N.Mamarajabova, M.U.Xamidova, D.B.Yakubjanova, Z.M.Djalolova, N.Z.Abidova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. - 272 b.
2. Nazarova Dildora Asatovna, Surdoprdagogika.
3. Umumiy psixologiya: Pedagogika va psixologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik. / P.I. Ivanov, M.E. Zufarova; Mas'ul muharrir D.M. Mirzajonova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. 480 b.
4. Shamshetova A.K., Melibayeva R.N, Usmanova X.E., Xaydarov I.O. Umumiy psixologiya. O'quv qo'llanma, - T.: "Barkamol fayz mediya, 2018. - 272 b.
5. <https://ziyonet.uz>